

EKISH MUDDATLARINI NO'XAT MALLA BILLUR NAVINING
HOSILDORLIGIGA TASIRI**Ma'rifjonov Muxammadqodir**

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15188795>

Annotatsiya. Oxirgi yillarda iqlimning isib borishi, haroratning keskin ko'tarilishi, no'xatning malla billur navi ekinini sug'oriladigan yerlarda samara bermoqda. Urug'larning unib chiqishi uchun suv kerak bo'lib, suvni qanchalik ko'p yoki kam shimib olishi juda ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: malla billur, no'xat, hosildorlik, ekish muddati, sug'oriladigan yerlar.

No'xat – dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simlik turkumi; dukkakli don ekinini. Vatani Osiyo. Poyasi o'tsimon, tik o'sadi, dag'al, qovurg'ali, sershox, tukli, balandligi 30-70 sm. Bargi murakkab, patsimon. Guli ikki jinsli, kapalaksimon, mayda. Mevasi dukkak, dukkagida 1-2 ta, goh 3 ta don bo'ladi. Don rangi oq, pushti, to'q-sariq, issiqsevar va yorug'sevar, bahorgi ekin. Boshqa dukkakli ekinlarga nisbatan qurg'oqchilik va sho'rga chidamli, urug'i 2- 5°C haroratda unib chiqadi, past haroratda sekin o'sadi. Maysasi bahorgi -6-8°C gacha qorasovuqlarga chidaydi. Namlik me'yordan ortiq bo'lsa kasallanadi, shona va guli to'kiladi. O'zidan changlanadi. O'suv davri 70-190 kun. Don tarkibida 19-33% oqsil, 4-7% moy, 0,2-4,0% kul, 48-61% azotsiz ekstrativ moddalar, 2-12% klechatka, vitaminlar hamda aminokislotalar mavjud. Bir mavsumda bir gektar yerda no'xat ildizlari 50-70 kg sof modda hisobida azot to'playdi. Keng qatorlab (qator orasi 45-60 sm) yoki yoppasiga qatorlab (qator orasi 15 sm), ba'zan sepma usulida 5-10 sm chuqurlikda ekiladi.

So'ngi yillarda iqlimni global o'zgarishi, haroratni keskin ko'tarilishi, lalmi xududlarni cho'lashishi bir davrda, axolini don va dukkakli - don ekinlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida no'xat ekinini sug'oriladigan yerlarda yetishtirish samara bermoqda. Urug'larning unib chiqishi uchun avvalombor suv kerak. Urug'lar suvni o'ziga shimib bo'rta boshlaydi. Urug'larni zo'r kuch bilan bo'rtishi ularning urug' po'stini yorishiga, urug'larning esa tuproq zarrachalarini so'rib, tuproq yuzasiga chiqishga imkon beradi. Urug'lar unib chiqishi uchun urug'da to'plangan oziq moddalar suvli muhitda sabab ma'llumki, har bir ekin turining quruq urug'lari tarkibida bog'langan suvlar bo'ladi, jumladan no'xatda ham. Lekin bu suv moddalar almashunivi jaroyanida ishtirok etmaydi. Natijada urug'lar unib chiqishi oldidan o'z vazniga nisbatan ma'lum bir mikdorda shimib olishi shart. Tadqiqot obyekti va uslublari. So'nggi yillarda no'xat ekinini sug'oriladigan maydonlarida ham ekilib hosil olinayotganligini hisobga olinib,

sug'oriladigan maydonlarda yetishtirilgan no'xat navlarining urug'ini suvini shimish jadalligini laboratoriya sharoitida o'rgandik. Tajriba 22-25°C haroratda o'tkazildi. Tajriba obyekti sifatida malla billur navlari namunalari ilk bor o'rganildi.

Biz bu tajribamizda no'xat navlari urug'larining 20-25°C haroratda qancha miqdorda suv shimib olish qobiliyatini aniqlashda har bir soatda kuzatib bordik. Tajriba 3 takroriylikda o'tkazildi. Bu esa urug'ni unib chiqishi uchun suv shimish miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Shuningdek, navlar pishib etish jihatidan farq qiladi. Erta pishgan turlarni birinchi kurtaklar paydo bo'lganidan 1-2 oy o'tgach iste'mol qilish mumkin. No'xatning o'rta pishib etish davri 2-2,5 oy. Kech turlarni 2,5-3 oydan keyin yig'ib olish mumkin.

No'xatning malla billur naviga mansub oqsilga boy bir yillik o'simlik hisoblanadi. No'xat o'simligining ozuqaviyligi yuqori bo'lib doni tarkibida o'rtacha 12-32% oqsil, 5-7% moy, 49-60% azotsiz ekstraktov moddalar, 2,3-13% kletchatka, 0,2-4,0% kul va shuningdek, B1 vitamini hamda mineral tuzlar mavjud.

Bu navda bir tonna urug' va tegishli barg - poya yetishtirish uchun 45-60 kg sof modda hisobida azot, 16-20 kg fosfor, 30 kg kaliy, 25-30 kg kalsiy, 8-13 kg magniy sarflanadi. Erkin azotni o'zlashtirish xususiyatini nazarda tutib gektariga 20-30 kg azot, 60-80 kg fosfor va 30-40 kg kaliy sof modda hisobida solish tavsiya qilinadi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar yer haydashdan oldin solinadi, azotli o'g'it ekishdan oldin va o'suv davrida solinadi.

Sifati bo'yicha 1 sinfga javob beradigan urug' ekish (tozaligi 99%, unuvchanligi 95%) maqsadga muvofiqdir. Malla Billur navi erta ko'klamda bahorgi don ekinlari bilan bir vaqtda ekiladi. Gektariga 0,8-1,4 mln. dona miqdorida urug' ekiladi. Yirik donli navlar gektariga 240-300 kg ekiladi, mayda donli navlar 150-200 kg miqdorida ekiladi. Bu miqdorlar suvli yerlarda yoppasiga qator-lab ekish uchun tavsiya qilingan.

Poyasi egiladigan navlar poyasi tik o'sadigan ekinlar bilan qo'shib ekiladi, bo'lmasa hosilni yig'ib olish juda qiyin. Aksariyat xolda arpa yoki suli qo'shib ekiladi. Ekish me'yori asosiy ekish me'yoridan 16-20 % ekiladi.

O'suv davrida jo'yaklar olinib (orasi 60-70 sm), 2-3 marta sug'oriladi. Maysalanish davrida qatqaloqqa qarshi boronalanadi. Maysalanish davrida begona o'tlarga qarshi 48% li bazargan 2-3 litr qo'llanadi. Kasallik va hasharotlarga qarshi ruhsat etilgan kimyoviy moddalar ishlatiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мустанов, С. Б., & Умурзакова, У. Э. (2019). Деятельность клубеньковых бактерий на корнях нута в условиях Узбекистана. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 26-29).
2. Shadiyev, M., & Mustanov, S. (2022). EKISH SXEMASINING NO'XATNI NIGRITUM NAV NAMUNASINING HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(27), 194-196.
3. Mustanov, S., & Mustanova, Z. (2023). SUG 'ORILADIGAN YERLARDA NO 'XATNINING UMID NAVINI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 148-150.
4. Mustanova, Z., & Mustanov, S. (2023). NO'XATNING UMID NAVINING SUG'ORISHNI ILDIZ TIZIMIDAGI TUGANAK BAKTERIYALAR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 94-95.
5. Mustanov, S., & Shadiyev, M. (2022). NO'XATNING NIGRITUM NAVINING EKISH USULLARIDA O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya, 1(6), 227-229.
6. Mustasnov, S. B., & Mustanova, Z. S. (2023). EKISH SXEMALARINING NO 'XAT HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 670-673.
7. O'G'Li, M. N. J., & Mahammadiyev, J. N. O. G. L. (2022). QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (Conference), 485-488.
8. Mahammadiyev, J., Yoqubov, M., & Nurmanova, I. (2023). ZARARKUNANDALAR VA HASHAROTLARGA QARSHI KURASHUVCHI VOSITALARNING MIKROKAPSULLARI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 1201-1205.
9. Yoqubov, M., Mahammadiyev, J., & Eshonqulova, A. (2023). SABZI VA OLMADAN TAYYORLANGAN MAHSULOTLARNING TARKIBINI O 'RGANISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 872-876.
10. Musaxon, Y., & Jasur, M. (2023). O'ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN MIRZOYI QIZIL VA SARIQ SABZI NAVLARINING TARKIBINI O'RGANISH. Journal of Universal Science Research, 1(11), 686-689.

